



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY ILMIY YO‘NALISHLARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLAYN
KONFERENSIYASI

2021-
yil

8-MAY



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

**“GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHNING
ZAMONAVIY ILMIY YO‘NALISHLARI”**

respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi

M A T E R I A L L A R I

Toshkent – 2021

ISBN: 978-9943-7285-4-7

UO‘K: 377.112.4

KBK: 74.266

Oliy ta’lim mamlakatning ertangi taraqqiyotini belgilab beradigan, jamiyat hayotining barcha jabhasini isloh etishda hal qiluvchi vazifani bajaradigan muhim ta’lim bosqichi hisoblanadi. Shuning uchun ham mehnat bozorida raqobatdosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta’lim tizimi sifati va samaradorligini tubdan oshirish har bir mamlakat ijtimoiy siyosatining asosiy negizini tashkil etadi. Mazkur masalani hal qilishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘ziga xos o‘rni bor.

Mazkur to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-yil 8-mayda tashkil etilgan “Gumanitar fanlarni o‘qitishning zamonaviy ilmiy yo‘nalishlari” mavzusidagi respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallaridan iborat.

Konferensiya O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yilda respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga muvofiq tashkil etilgan. Ilmiy anjumanda respublikamiz oliy o‘quv yurtlarida, kasbiy ta’lim hamda umumta’lim maktablarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishida ilmiy tatqiqotlar olib borayotgan respublikamiz olimlari, doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilarning vaqolalari jamlangan.

To‘plam uchun mas’ullar:

Mas’ul muharrir: Sh. Sirojiddinov f.f.d., professor

Ilmiy muharrirlar: I. Aslonov, psixol.f.n., dotsent, D. Arapbaeva psixol.f.n., dotsent.

Taqrizchilar: L. Raupova f.f.d. professor, va Sh. Abdullayeva f.f.d. professor

Tahrir hay’ati: V. Muxamedjanova t.f.n. dotsent, I. Uzakov p.f.n.,

A. Bo‘ronov, Sh. Muxamedov,

Tuzuvchilar: I. Aslonov, psixol.f.n., dotsent, D. Arapbaeva psixol.f.n., dotsent,

R. Alimbayeva, M. Karimova, A. Zarifov

Sahifalovchi va dizayner: Sh. Tursun

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

UO‘K: 377.112.4

KBK: 74.266

ISBN: 978-9943-7285-4-7

© “Lesson Press” nashriyoti.

© ToshDO‘TAU, 2021

III SHO‘BA

**GUMANITAR FANLAR DOIRASIDA OLIB BORILAYOTGAN
ZAMONAVIY ILMIY TADQIQOTLAR**

YOSHLARDA MILLIY G‘URUR VA VATANPARVARLIK SIFATLARINI
TARBIYALASHDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA
MEROSINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

Aslonov Ilhom Nizomovich.....125

ШАҲРИСАБЗ ШАҲРИ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИНИНГ ТАРИХИЙ-
МЕЪМОРИЙ ЁДГОРЛИКЛАРИ ВАТАНИДИР

Чариев Турсун Хуваевич, Шомуродов Баҳром Баҳодир ўғли129

ABDULLA ORIPOVNING “SOHIBQIRON” DRAMASINI O‘QITISHDA
INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Yuldasheva Noila Ravshan qizi131

BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA
O‘RGATISHDA PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

M.E.Musayeva, Sh.I.Nurmatova134

ЎСМИР ЁШДАГИ ЎҚУВЧИЛАР ДУНЁҚАРАШИ ВА ХУЛҚ-АТВОРИГА
ТАЪСИР ЭТУВЧИ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР

Абдурахмонова Зухра Абдурахмон кизи137

ШАРҚДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК МАСАЛАЛАРИ ВА УНИНГ ЕЧИМИ

Куанишова Дилмира Туйчиевна.....141

ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ТИЛ ВА МУЛОҚОТНИНГ ЎРНИ

Худайберганов Равшонбек Худайберган ўғли.....144

ТАЪЛИМ-ТАРБИЯДА ИНТУИЦИЯ ВА СИНЕРГЕТИКА

Надинова Зойира Паяновна, Элчаев Зоҳиджон Ахматович148

ЦИФРОВЫЕ МЕТОДЫ В ГУМАНИТАРНЫХ НАУКАХ

Бозаров Абдулбоки Абдурахимович154

ҒОЯВИЙ ТАФАККУР ВА ЁШЛАР ТАЪЛИМ-ТАРБИЯСИГА ДОИР
АЙРИМ ЁНДАШУВЛАР

Ражабов Ҳабибулло Ибодуллаевич158

МАКТАВ ТА’ЛИМИ ШАРОИТИДА ИЖДИЙ ТАФАККУРНИ RIVOJLANTIRISH

Arapbayeva Damegul Kurbanovna, Qutlimurotova Gulshod Rajabovna.....161

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ
МАСАЛАСИ

Саидов Ихтиёр Мизробович163

UDK: 159.9

MAKTAB TA‘LIMI SHAROITIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Arapbayeva Damegul Kurbanovna

damegul.83@mail.ru

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Qutlimurotova Gulshod Rajabovna

Toshkent viloyati Zangiota tumani 25-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabi psixologi

Insonning ijodiy salohiyatini rivojlantirish mumkin emas, uni faqat erkinlashtirish (ozod qilish) mumkin, degan fikr tarqalgan. Biroq faoliyatning turli sohalarida kreativ xulq-atvor va o‘zini ifoda qilish, ijodiy harakat va qobiliyatlarni modellashtirishning ayrim jihatlari va usullariga o‘rgatish tajribasi kreativ fikrlash ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada o‘sgani, shuningdek, shaxsning mustaqillik, yangi tajriba uchun ochiqlik, muammolarga nisbatan sezgirlik, ijodga nisbatan yuqori darajadagi ehtiyoj kabi sifatlarning paydo bo‘lishi va kuchayishini ko‘rsatmoqda.

Ijodiy tafakkur rivojlanishini rag‘batlaydigan sharoitlar sirasiga psixologlarning katta qismi quyidagilarni kiritadi:

- qat‘iy berilgan va nazorat qilinadiganlaridan farq qiladigan tugallanmaganlik yoki ochiqlik vaziyati;
- savollarning ko‘p bo‘lishiga ruxsat berish va buni rag‘batlash;
- keyingi faoliyat uchun usul, strategiya, vosita (instrument), predmetlarni yaratish va ishlab chiqish;
- mas‘uliyat va mustaqillikni rag‘batlash;
- mustaqil ishlanmalar, kuzatishlar, hislar, umumlashmalar, qiyoslashlarga urg‘u berish;
- dunyoga tobora rang-barang qarashni shakllantiradigan bilingvist (ikki tillilik) tajribasi;
- ota-onalar va atrofdagilarning bolalar qiziqishlariga e‘tibor qaratishi [2].

Ayni paytda ijodiy qobiliyatlar rivojiga to‘sqinlik qiladigan omillar ham mavjud. Bular:

- nima bo‘lsa ham muvaffaqiyat qozonishga intilish, tavakkalga yo‘l qo‘ymaslik;
- konformlik, boshqalarning bosimiga qarshi tura olmaslik;
- tadqiqot, tasavvur, fantaziyani ma‘qullamaslik;
- qat‘iy jinsiy stereotiplar;
- o‘yin va o‘qishni differentsiyalash: “O‘qish – mashaqqatli mehnat” tarzida;
- o‘z nuqtai nazari, o‘z fikrini o‘zgartirishga tayyorlik;

- kimningdir nufuzi oldida bosh egish [2].

Iqtidorli bolalarni o‘qitish uchun maxsus kompleks dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular ijodning barcha qirralarini bolalarning intellektual va shaxsiy rivojlanishi, ularning yakka tartibdagi ehtiyojlari bilan birgalikda ta‘minlashni ko‘zda tutadi. Biroq maktab ta‘limining odatiy sharoitlarida ham o‘qituvchi yoki maktab psixologi ijodiy tafakkur va umuman ijodkor shaxsning rivojlanishini rag‘batlaydigan sharoitlarni yaratishi mumkin. Shubhasiz, bu qo‘shimcha kundalik sa‘y-harakatlarni talab qiladi, ammo o‘qituvchi bilan o‘quvchining birgalikdagi ijodidan tom ma‘noda juda katta zavq olish imkonini ham yaratadi.

O‘qituvchi, o‘z o‘quvchilarining kreativligini rivojlantirishga intilar ekan, eng avvalo, o‘quvchilarning sinfda ijod qilishi uchun maqbul sharoitlarni yaratib berishi, ya‘ni savollar, yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishini yengillashtirishi va rag‘batlashi lozim. Bunday ta‘limning asosiy maqsadi atrof olamga ijodiy munosabatni shakllantirishga ko‘maklashadigan muhitni tashkil qilish sanaladi.

Ko‘plab psixologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, fikrlashning har xil (konvergent, divergent, tanqidiy) turlaridan foydalanishga kattaroq e‘tibor qaratib, eslab qolish (yod olish)ga kamroq urg‘u beradigan, bahodan mukofot yo qoralash vositasi sifatida emas, javobni tahlil qilish uchun qo‘llaydigan, spontan ekspressiyani tushunish (yoqtirish), mustaqil amaliyot yoki tadqiqotlarda bilimlardan ijodiy foydalanish vaziyatini va buning uchun imkoniyat yaratadigan, originallik va yangi g‘oyalarni sinashga intilishni qadrlaydigan, ularni erkalik va “originallik” bilan aralashtirmaydigan o‘qituvchilar bu borada ko‘proq muvaffaqiyat qozonadi.

Umuman aytganda, ayni paytda ijodiy fikrlashning turli jihatlari: muammolar, aloqadorliklarni izlash, farazlarni ilgari surishda muqobilik va originallik, g‘oyalarning ishlanganligini baholashga maxsus o‘rgatishga alohida e‘tibor qaratish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Arapbayeva D.K., Rustamova M.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik diagnostikasi. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, “Navro‘z” nashriyoti, 2016. – B. 64
2. Arapbayeva D.K., Norkulova N.T., Rustamova M.M. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. Metodik qullanma. – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2017. – 92 b.
3. Котова Е.В., Кузнецова С.В., Романова Т.А. Развитие творческих способностей дошкольников: Методическое пособие. – М.: “ТЦ Сфера”, 2010